


YASHIL

№10

Iqtisodiyot va taraqqiyot

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, ilmiy-ommabop jurnal

2
0
2
4



7491



ISSN: 2992-8982

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi



Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE



Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUASSIS: “Ma’rifat-print-media” MChJ

HAMKORLARIMIZ: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat
resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



МУНДАРИЖА

Инвестиции в образование – путь к устойчивому развитию.....	11
Синдаров Шерзод Эгамбердиевич, Розиматов Санжарбек Косимжон угли	
Rentabellik – biznes modelining iqtisodiy samaradorligining o'lchovi sifatida.....	14
M.M.Tashxodjaev	
“Hududgazta'minot” ajda amalga oshirilgan loyihalar samarasi.....	19
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
Sug'urta kompaniyalarida sug'urta zaxiralari hisobini takomillashtirish.....	25
Najimova N.	
AQSH va xitoy tashqi savdosining rivojlanish tendensiyalari va milliy iqtisodiyotimizga ta'siri.....	29
Rahimboyeva Begoyim Doniyor qizi	
Baliqchilik xarajatlari va olingan mahsulotlar hisobini tashkil etishni takomillashtirish.....	36
Aitimbetov Amirbek Qoishibekovich	
O'zbekistonda banklar faoliyatida raqamlashtirish loyihalarini tatbiq etishni qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirish.....	43
Maxsadaliyeva Maftuna Tohir qizi	
Tijorat banklarida muammoli kredit (npl) qarzдорliklarini undirish jarayonlarini takomillashtirish istiqbollari.....	50
Ko'makov Shavkat Norboevich	
Xodimlarga munosib mehnat sharoitlari yaratishning iqtisodiy samarasi.....	57
Tuychiyev Dusmurod Tuychiyevich.	
Korxonalarning innovasion faoliyatini boshqarish vositalarini shakllantirishning zaruriy shartlari.....	63
Akramboyev Azizbek Rustamjon ug'li	
Mamlakatimizda turizm sohasida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni boshqarish xususiyatlari.....	69
Ochilov Akram Odilovich, Xamidova Mo'tabarxon Abdumalik qizi	
Sug'urtada investitsiya muhitini tashkil etish.....	76
O'tashev Jahongir Burxonovich	
Forms and models of familyeconomy.....	82
Fayziyeva Mashhura Qosimovna	
Oliy ta'lim muassasalarida kreativ yondashuv strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	88
Rahimova Kutlibeka Ergashevna	



Построение интегрированной системы управления затратами предприятий.....	95
Алиева С.С.	
Роль средств массовой информации и коммуникации в развитии образования mexanizmlari.....	99
Алиакбарова Рушанабону Муродуллаевна	
Концептуальные основы повышения эффективности производства в национальной экономике республики узбекистан.....	105
Рахматова Наргиза Агзамовна, Нурмухаммадов Лазизбек	
Ijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalarini rivojlantirish yo'llari.....	115
Sodiqov Baxtiyor To'raqulovich	
Temir yo'l tarmog'ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi.....	125
Nasimov Shavkat Vasievich	
Tijorat banklarining kichik biznes sub'ektlarini kreditlash amaliyotini.....	132
takomillashtirish yo'llari	
Jalilov Baxodir Amiralievich	
Ekoturizmni rivojlantirishda ekologiyani muhofaza qilish: barqaror kelajak sari yo'l.....	138
Tirkacheva Farangiz Sur'at qizi	
O'zbekistonda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishda xorij tajribasi.....	145
Salomov Temurbek Boburmirzo o'g'li	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishsizlik va inflyatsiya darajasini pasaytirish muammolari.....	152
Kamil Sharipov	
Sanoat korxonalarida mehnat sifati va samaradorligini oshirishda inson resurslarini boshqarish.....	159
Ergashev R.X., Ochilov A.O., Turaqulov O.O.	
Banklar likvidligi va kapitallashuv darajasining bank kredit kanali samaradorligiga ta'siri.....	164
Absalamov Akram Tolliboyevich	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyasi.....	173
Davronov Jahongir Ma'sud O'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	178
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich	
JAMOAT TRANSPORTI XIZMATLARINING RIVOJLANISHIDA OLIMLARNING QARASHLARI.....	183
G'iyosidinov Boburbek Baxtiyor o'g'li	



Eco-marketing approaches for promoting green building materials through digital storytelling platforms.....	190
Koziyev Jalaluddin Alisher o'g'li	
Korxonada inson kapitalini rivojlantirish tizimi va konsepsiyasini takomillashtirish imkoniyatlari.....	197
Hamrokulov M.O.	
Роль инноваций в развитии электронной коммерции и цифровой экономики.....	207
Умарходжаева Зайнабхон Нодирхон кизи	
Концептуальные основы повышения эффективности производства в национальной экономике республики узбекистан.....	211
Рахматова Наргиза Агзамовна, Нурмухаммадов Лазизбек	
Tijorat banklari tomonidan uy-joylar qurilishini moliyalashtirishda qo'llaniladigan usullar.....	121
Ziyayev Azamat Mirza o'g'li	
O'zbekiston respublikasida auditorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari.....	229
Abdullaev Xurshidjon Nazrullo o'g'li	
Kosmik monitoring natijalari orqali raqamli qishloq xo'jaligini boshqarishning zamonaviy jihatlari.....	240
Kamoliddin Madrahimov Ro'zimbayevich	
Yengil sanoat korxonalarida eksport va import operatsiyalari hisobini takomillashtirish.....	248
Rasulova Zilola Abdig'opparovna	
Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash.....	257
Salomov Temurbek Boburmirzo o'g'li	

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AUDITORLIK FAOLIYATINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI



Abdullaev Xurshidjon Nazrullo o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

ORCID: 0009-0009-2167-0138

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining turlari (shakllari) va ularning huquqiy asoslari tahlil etilgan. Bundan tashqari, maqolada ichki va tashqi auditorlik tekshiruvlar yuzasidan olimlarning fikrlari berilib, muallif tomonidan auditorlik faoliyatini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan. Ichki auditni o'tkazish bo'yicha ichki audit standartlarining tuzilishi va qo'llanilishi deb nomlangan rasm orqali muallifning fikrlari bayon qilingan va shu bilan birga korxonalarda ichki audit o'tkazishni takomillashtirish maqsadida muallif tomonidan Ichki audit hisoboti tarkibiy qismlari bo'yicha namunaviy jadval ishlab chiqilib, amaliyotda qo'llash uchun taklif etilgan.

Kalit so'zlari: auditor, auditorlik tashkiloti, faoliyat, auditorlik xizmatlari, tekshiruvi, ichki, tashqi, professional, xizmatlar, litsenziyalash.

Abstract: This article analyzes the types (forms) of audit activities and their legal bases in the Republic of Uzbekistan. In addition, the article gives the opinions of scientists on internal and external audits, and the author gives suggestions and recommendations on improving audit activities. The author's ideas are described through the picture called "Structure and application of internal audit standards for internal audit", and at the same time, in order to improve internal audit in enterprises, the author developed a sample table of the components of the internal audit report and proposed it for practical use.

Key words: auditor, audit organization, activity, audit services, inspection, internal, external, professional, services, licensing.

Аннотация: В данной статье анализируются виды (формы) аудиторской деятельности и их правовые основы в Республике Узбекистан. Кроме того, в статье приведены мнения ученых о внутреннем и внешнем аудите, а также автор дает предложения и рекомендации по совершенствованию аудиторской деятельности. Идеи автора описаны через картинку под названием «Структура и применение стандартов внутреннего аудита», а также в то же время, в целях совершенствования внутреннего аудита на предприятиях, автор разработал примерную таблицу компонентов внутреннего аудита. отчет и предложил его для практического использования.

Ключевые слова: аудитор, аудиторская организация, деятельность, аудиторские услуги, проверка, внутренняя, внешняя, профессиональная, услуги, лицензирование.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotiga jadal sur'atlar bilan integratsiyalashayotgan O'zbekistonda hozirgi kunda xalqaro moliyaviy hisobotlar va audit standartlariga o'tish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda sohaga oid normativ-huquqiy baza zamon talablariga mos ravishda takomillashtirilib borilmoqda.

Taraqqiyotning ko'p asrlik tarixi davomida audit passiv "hisobot tinglash"dan professional faoliyat turiga o'tdi. Auditni tashkil etishning har bir bosqichi iqtisodiy munosabatlarning muayyan darajasiga to'g'ri keldi, chunki audit har doim muayyan iqtisodiy muhit talab qiladigan vazifalarni amalga oshiradi.

Birgina xalqaro amaliyotda ichki auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish uslubiyo'tini va ichki auditning xalqaro standartlarini takomillashtirish hamda rivojlantirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ichki audit xizmati faoliyatida ichki auditning xalqaro standartlaridan foydalanish xususiyatlari, belgilangan talablarga rioya qilish hamda respublikamizda amaliyotga joriy etishning afzalliklari o'rganilgan. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar tajribasi va sohadagi ilmiy yutuqlarini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki audit faoliyatini muvofiqlashtiruvchi me'yoriy hujjatlarni xalqaro talablarga uyg'unlashtirish, ichki audit institutining faoliyat samaradorligini oshirish, samarali boshqaruv tizimini shakllantirish va investorlarni jalb etishda ichki audit xizmatining biznes risklarini pasaytirishga qaratilgan mavqeini oshirish muhim omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki audit masalasida quyidagi izlanishlar olib borilganini ko'rishimiz mumkin: B.A.Xasanov o'z ilmiy izlanishlarida ichki audit xizmatini kompyuterlashtirish tizimiga alohida to'xtalib o'tgan¹⁰¹. N.F.Karimovning ilmiy ishlarida tijorat banklarida ichki auditni tashkil etish va uning uslubiyo'tini takomillashtirish jihatlari o'rganilgan¹⁰².

Ichki auditorlar instituti (The institute of internal auditors) tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra "Ichki audit – bu tashkilot faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan mustaqil, xolis kafolatlar va maslahatlar berish faoliyatidir. Ichki audit tashkilotga o'z faoliyatini undagi risklarni boshqarish, nazorat hamda korporativ boshqaruv jarayonlarining samaradorligini baholash va yaxshilashga tizimli va izchil yondashish orqali amalga oshirishda ko'maklashadi"¹⁰³.

K.B.Axmedjanov tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirishning ayrim masalalari ochib berilgan. Sohaga oid ko'plab adabiyotlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ichki audit tushunchasiga ta'riflar va izohlar berilgan. K.B.Ahmadjonov ichki auditga shunday ta'rif beradi: "ichki audit – xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ob'ektiv kafolat va maslahatlar beruvchi mustaqil tizim hisoblanadi, ichki audit buxgalteriya ma'lumotlarining to'g'riligini ta'minlash va korxonada samarali ichki nazorat tizimini tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyatdir"¹⁰⁴.

Ilmiy izlanishlar jarayonida A.Turaev "ichki audit" tushunchasiga mualliflik ta'rifi quydagicha bergan va unga ko'ra ichki audit risklarni boshqarish, ichki nazorat tizimlarining ishonchliligi va samaradorligini, jumladan korporativ boshqaruv amaliyotini ichki nazorat sohasidagi umumqabul qilingan xalqaro va milliy standartlar asosida muntazam va mustaqil ravishda baholash uchun tashkil etilgan faoliyat sifatida ochib bergan¹⁰⁵.

¹⁰¹ Хасанов Б.А., Алибоев З.А., Зокирова М.Ш. Ички аудитни автоматлаштириш асослари.—Т.: Фан, 2003. — 160 б.

¹⁰² Каримов Н.Ф. Тижорат банкларида ички аудитни ташкил қилиш ва унинг услубиётини такомиллаштириш муаммолари. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. — Т.: 2007. — 36 б.

¹⁰³ <https://global.theiia.org> — Ички аудиторлар институтининг расмий веб сайти маълумотлари.

¹⁰⁴ Аҳмаджонов К.Б. Иқтисодиётни модернизация қилиш шароитида ички аудит методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф. — Т., 2016. — 76 б.

¹⁰⁵ Тўраев А.Н. Хўжалик юритувчи субъектларда ички аудит хизматининг назарий ва амалий масаллари. Монография. — Т.: LESSON PRESS, 2017. — 213 б.



S.U.Mexmonov ishlarida byudjet tashkilotlarida ichki audit metodologiyasini takomillashtirish masalasiga byudjet tizimi nuqtai nazaridan yondashilganligini ko'rishimiz mumkin¹⁰⁶.

Ta'kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan ilmiy izlanishlarda aynan ichki auditning hozirgi kundagi o'rni, uning rejasini tuzish, ishchi hujjatlarini tayyorlash, yig'ma hisobotni tuzish, ichki audit uslubiyotini takomillashtirish masalalari, ichki auditorlarni xalqaro darajada sertifikatlash tizimi to'liq o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining turlari va ularning huquqiy asoslari mavzusini yoritish jarayonida iqtisodiy voqelik jarayonlarini o'rganishning ilmiy usullari—esperimental tadqiqot, umumlashtirish, guruhlashtirish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, istiqbolli prognozlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ekologik audit atrof-muhitni boshqarish tizimida korxona va tashkilotlar faoliyatining ekologik talablar va standartlarga muvofiqligini baholashga qaratilgan muhim vositadir. Uning maqsadi qonunbuzarliklar va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik xavflarni aniqlashdan iborat bo'lib, bu atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish va biznesning ekologik mas'uliyatini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy sharoitda ekologik qonunchilik va xalqaro standartlar talablarining mustahkamlanishi tufayli ekologik auditning huquqiy jihatlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ekologik auditning huquqiy asoslari yurisdiksiyaga qarab farq qiladi, lekin ko'pchilik mamlakatlarda ekologik audit uchun majburiy yoki ixtiyoriy talablarni belgilovchi ekologik qoidalar mavjud. Ekologik auditning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy xalqaro hujjatlardan biri atrof-muhitni boshqarish tizimlariga talablarni belgilaydigan ISO 14001 standartidir. Mamlakatimizda ekologik audit bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, "Ekologik audit o'tkazish to'g'risida"gi O'RQ-678-son¹⁰⁷ qonuni bilan tartibga solinadi, unda ekologik talablarga rioya etilishini nazorat qilish zarurligi qayd etilgan. Atrof-muhit auditi bu kontekstda ekologik qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilishning ixtiyoriy mexanizmi sifatida ishlaydi. Biroq, ko'pgina mamlakatlarda faoliyati atrof-muhit uchun potensial xavfli bo'lgan korxonalar uchun audit majburiy bo'lishi mumkin.

Atrof-muhit auditi qonunchilikka rioya etilishini baholash, ekologik xavflar va mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni aniqlash, atrof-muhit samaradorligini tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish kabi ko'plab funksiyalarni bajaradi. Ekologik auditning vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi:

- Korxonaning ekologik me'yorlar va standartlarga muvofiqligini baholash.
- Korxona faoliyati bilan bog'liq ekologik xavflarni aniqlash.
- Huquqbuzarliklarni bartaraf etish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.
- Ekologik javobgarlik va biznes shaffofligini oshirish.

Mavjud huquqiy normalarga qaramasdan, ekologik auditni tartibga solishda muayyan muammolar mavjud. Asosiy muammolardan biri iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun aniq va yagona standartlarning yo'qligi hisoblanadi. Natijada korxonalar talablarni turlicha talqin qilishlari mumkin, bu esa auditning samarasizligiga va asosiy ekologik muammolarni hal etilmasligiga olib keladi.

¹⁰⁶ Mexmonov C.U. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва ички аудит методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф. – Т.: 2018. – 76 б.

¹⁰⁷ Миллий қонинчилик базаси. <https://lex.uz/docs/5331133>



Yana bir muammo – ekologik audit bo'yicha tavsiyalarni bajarmaganlik uchun qonuniy javobgarlikning yo'qligi. Ba'zi mamlakatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarning buzilishi katta jarima va jarimalarga olib keladi, boshqa yurisdiksiyalarda esa bunday mexanizmlar mavjud emas yoki yetarli emas.

Zamonaviy sharoit ekologik muammolarni yanada samarali hal qilish uchun ekologik audit mexanizmlarini moslashtirish va takomillashtirishni talab qiladi. Audit davomida aniqlangan ekologik me'yorlarni buzganlik uchun huquqiy javobgarlikni kuchaytirishni takomillashtirish yo'nalishlaridan biri. Bu auditni yanada samaraliroq qiladi va uning kompaniyalarning ekologik siyosatiga real ta'sirini ta'minlaydi. Yana bir yo'nalish – raqamli texnologiyalarni ekologik audit jarayoniga joriy etish. Zamonaviy monitoring tizimlari, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishni avtomatlashtirish auditorlik tekshiruvlarining aniqligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirish, shuningdek, ekologik nazorat organlariga hisobotlarni taqdim etish jarayonini soddalashtirish imkonini beradi. Shuningdek, xalqaro muvofiqlashtirish va ekologik standartlarni uyg'unlashtirish muhimligini ta'kidlash joiz, bu transmilliy kompaniyalar uchun auditni soddalashtiradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ichki auditning nazariy va huquqiy asoslari, ichki audit xizmatini tashkil etish mexanizmlarini xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirish hamda ichki audit samaradorligini baholashning uslubiy asoslarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikacini innovasion rivojlantirish strategiyasida "xalqaro tajribani hisobga olgan holda korporativ huquqni rivojlantirish va korporativ boshqaruvning zamonaviy prinsiplarini joriy etish"¹⁰⁸ muhim vazifalardan biri etib belgilangan. Xo'sh shunday ekan barchamizda korxonaga audit nima uchun kerak? Degan savol tug'iladi. Korxona audit, nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar to'g'riligini ta'minlaydi, balki ularni tekshirish jarayonida ko'pgina xatolarga yo'l qo'ymaslikka yordam beradi. Auditor maqsadi – xatolar mavjud bo'lganda, korxonani ayblash yemas, balki ularni aniqlashga yordam berish, mijoz muammolarini tushunishga va ularni bartaraf qilishga yordam berish, soliq risklarini kamaytirish va soliq tekshiruviga tayyorlashni o'z ichiga oladi. Korxona faoliyatining tashqi tekshiruvi korxonaning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatining holatiga ob'ektiv baho berishga yordam beradi. Audit korxona rahbariga, ichki nazorat tizimi qanchalik samarali ekanligini tushunishni, hamda korxona faoliyatini yaxshilash uchun aniq bir maslaxatlar olishga yordam beradi. Hatto, tajribali bosh buxgalter ham, qiyin masalalar bo'yicha, to'g'ri va aniq qaror qabul qilish imkoniyati bo'lmaydi. Joriy ishlarning hajmi katta bo'lganida, ko'p hujjatlar aylanmasida, ba'zilarida buxgalterga oddiy bir masalada maslahat kerak bo'lib qoladi. Auditni amalga oshirish, hamda audit o'tkazilganidan keyin bir yil davomida beriladigan konsultatsiyalar, bosh buxgalterning ishlash paytida paydo bo'lgan savollarga javob topish vaqtini qisqartirishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 27 sentyabrdagi PQ-475-sonli "Qimmatli kog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining 3-bandini uchinchi qismiga muvofiq va Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-sonli karori bilan aktivlarining balans qiymati 1 mlrd so'mdan ko'p bo'lgan korxonalarda, aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming karrasidan ko'proq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida esa ichki audit xizmatlari tashkil etilishi belgilab berildi¹⁰⁹.

Z. Mamatov auditning ichki va tashqi turlariga iqtisodiy tomondan quyidagicha yondashadi¹¹⁰. Auditning bir ko'rinishi bo'lgan ichki auditorlik faoliyati korxonaning o'zida faoliyat

¹⁰⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрдаги ПФ-5544-сонли «2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиqlаш тўғрисида»ги Фармонида 1-илова. (ҚХММБ, 22.09.2018 й., 06/18/5544/1951-сон; 08.03.2019 й., 06/19/5687/2723-сон).

¹⁰⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 13 декабрдаги ПФ-5894-сонли Фармони тахририда — Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 14.12.2019 й., 06/19/5894/4161-сон

¹¹⁰ Маматов З. Ўзбекистонда аудитни ташкил қилишнинг ўзига хос хусусиятлари// Бозор, пул, кредит -Тошкент, 2005. -№2 - Б 33-36



yuritayotgan moliya xodimlarining tekshiruvi va tahlili, taftishi hisoblanadi, tashqi auditorlik faoliyati deganda esa, shartnoma asosida auditorlik tashkilotlarining mijozga uning moliyaviy ahvoli xaqida bergan hulosasi tushuniladi. Ichki auditga xos bo'lgan xususiyatlar quyidagilardan iborat: ichki xo'jalik tizimida ishlaydigan hisob, nazorat va taxlil mutaxassislari tomonidan bajariladi, uning asosiy vazifasi ushbu xo'jalik tizimi doirasida ma'muriyat extiyojini kondirish. Xo'jalik operatsiyalari, resurslaridan foydalanish, hisob-hisobot va ichki nazoratning ahvoli belgilangan hisob siyosati va umumiy uslubiy qoidalarga mos kelishi tekshiriladi. Ichki audit aktivlarining saklanishini joriy ta'minlash, moddiy javobgarlikni yo'lga qo'yish va tashkil etish, kamomadlar, rastrat va o'g'irliklar bo'yicha karzlarni aniqlash va tugatish bilan bevosita bog'liq. Ichki audit tashkiliy jihatdan taftish ob'ektlaridan mustaqil bo'lishi lozim, umuman ular shu xo'jalik tizimi rahbariyati extiyojini qondirish va undan ish haqi olishni oqlashi lozim. Ichki audit ichki nazoratning bir qismi va doimiy bo'lishi lozim. Ichki auditing asosiy afzalliklari uning ochiqqligi tashki auditga nisbatan xarajatlarning kamligi (ichki audit xizmati xarajatlarning taxminan 30-50% arzon) bilan birga ichki audit xizmatlarining istalgan paytda talab qilinishi, ichki auditorlarning tashkilotdagi vaziyat, ish maqomi va boshqaruvini, madaniyat va siyosatni, ichki auditorlar orqali bo'linmalarining yuqori malakali mutaxassislarni tekshiruvga jalb etish qonunchilikka muntazam rioya kilish kafolatlari va ish jarayoniga yangiliklar kiritishni rag'batlantirishdan iborat. Tashqi auditning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: yollangan xodim bo'lmagan, lekin asosan shartnoma asosida dalolat berish vazifasini bajaradigan professionallar tomonidan amalga oshiriladi. Uning asosiy vazifasi uchinchi shaxslar aksiyadorlar va investorlar, banklar, sheriklar, solik organlari va shu kabilar ehtiyojlari uchun o'z fikrini bildirish. Hajmi, mazmuni, xarakteri, shuningdek, auditorlik xatari ichki auditning sifati va ta'siriga qarab belgilanadi.

Tashqi audit ko'lamini va mijozning hisob va axborot ma'lumotlariga dastlabki ishonch darajasini aniklash uchun hisob va hisobot xolati, resurslardan foydalanish samaradorligi va ichki nazorat darajasi tekshiriladi. Tashqi faqat tashkiliy jihatdan emas, moddiy jixatdan ham mijozdan mustaqil bo'lishi lozim.

Tashqi audit vaqti-vaqti bilan o'tkaziladi va taxminan yilda bir marta amalga oshiriladi.

Tashqi va ichki auditga huquqiy adabiyotlarda quyidagicha ta'rif beriladi. Tashqi audit bu auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan tekshiruv turi, ichki audit esa xo'jalik yurituvchi sub'ekt manfaatlariga ko'ra ichki buxgalterlik hisobi qoidalariga asoslangan nazorat turi.

Majburiy auditorlik faoliyati bu O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi qonunlar asosida, shuningdek, davlat organlari, prokuratura, tergov organi, soliq organining topshirig'iga ko'ra tadbirkorlik faoliyati sub'ektning buxgalterlik hisoboti va moliyaviy shart-sharoitini yetkazishdir.

Tashabbus ko'rinishidagi auditorlik faoliyati buxgalterlik hisobotidagi kamchiliklarni aniqlash xamda korxonaga tegishli masalalarni yechishga oid bo'lgan xizmatlardir.

O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati tug'risida"gi qonunining 9-moddasiga asosan, auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligi va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotini auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir.¹¹¹

Auditorlik tekshiruvlari majburiy auditorlik tekshiruvi xamda tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi shakllarida o'tkaziladi. Yuridik adabiyotlarda xam auditorlik tekshiruvlarini majburiy va tashabbus ko'rinishlari keltirib o'tiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, majburiy audit bu qonunchilikda to'g'ridan-tug'ri belgilab berilgan tekshiruvdir. Undan bo'yin tovlab bo'lmaydi, shunga qaramasdan, bu tekshiruvda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar shartnomaviy huquqiy munosabatlar xarakteriga egadir, ular ma'muriy bo'ysunuv xususiyatidan xolidir. Chunki, bu auditorlik faoliyatini amalga

¹¹¹ Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 30 апрелдаги ЎРҚ-352-сонли Қонуни таҳририда — ЎР ҚХТ, 2013 й., 18-сон, 233-модда. lex.uz/docs/2159832



oshirishning bir shaklidir xolos, ushbu shakllar auditorlik faoliyatini mazmun moxiyatini o'zgartirmaydi. Ikkala turdagi auditorlik tekshiruvi auditorlik xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi asosida olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati tug'risida"gi qonunning 10-moddasiga muvofiq, quyidagilar xar yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi kerak: aksiyadorlik jamiyatlari; aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravari miqdoridan ko'p bo'lgan mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar; banklar va boshqa kredit tashkilotlari; sug'urta tashkilotlari; investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar hamda ularning investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar; manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo'lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar; mablag'larining hosil bo'lish manbalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qilinadigan majburiy ajratmalar bo'lmish byudjetdan tashqari fondlar;

ustav fondida davlatga tegishli ulush bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va davlat unitar korxonalari hamda fond va tovar birjalari¹¹² shular jumlasidandir.

Majburiy auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi xo'jalik yurituvchi sub'ekt bo'ladi. Auditorlik tashkilotini tanlash xo'jalik yurituvchi sub'ekt mulkdori, shuningdek qatnashchilari (aksiyadorlari)ning umumiy yig'ilishi bilan kelishib olinadi. Qonun hujjatlariga muvofiq o'tkaziladigan majburiy auditorlik tekshiruvidan bosh tortish xo'jalik yurituvchi sub'ektning mansabdor shaxsiga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning mansabdor shaxsiga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin kalendar yil tugaguniga qadar majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bosh tortish xo'jalik yurituvchi sub'ektdan bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima undirishga sabab bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning oxirgi hisobot sanasidagi joriy aktivlari summasining jami yigirma foizidan ortiq miqdorda jarima undirish unga undiriladigan summani undirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran olti oy mobaynida oyma-oy bo'lib to'lash imkoni berilgan holda amalga oshiriladi. Jarimaning to'lanishi xo'jalik yurituvchi sub'ektni majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishdan ozod qilmaydi¹¹³.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi xo'jalik yurituvchi sub'ektning yoki boshqa auditorlik tekshiruvi buyurtmachilarining qaroriga binoan, qonun xujjatlarida nazarda tutilgan tartibida o'tkazilishi mumkin. Tashabbus tarzidagi yoki ixtiyoriy audit deb xam atasak bo'ladi, bunda asosan haqiqiy shartnomaviy munosabat namoyon bo'ladi. Sababi hak evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi talabiga binoan o'zaro tenglik asosda ijrochi va buyurtmachi o'rtasida munosabatlar yuzaga kelishi lozim.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining predmeti, muddatlari va boshqa shartlari auditorlik tekshiruvning buyurtmachisi bilan auditorlik tashkiloti o'rtasida tuziladigan auditorlik tekshiruvini o'tkazish tug'risidagi shartnomada belgilab qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati tug'risida"gi qonunining 17-moddasiga muvofiq, auditorlik tashkilotlari quyidagi professional xizmatlarini ko'rsatishlari mumkin:

- buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish;
- moliyaviy hisobotni tuzish;
- milliy moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga o'tkazish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish;
- buxgalteriya hisobi, soliq solish, rejalashtirish, menedjment va moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari yuzasidan konsalting xizmati;

¹¹² Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 30 апрелдаги ЎРҚ-352-сонли Қонунига асосан тўққизинчи хатбоши билан тўлдирилган — ЎР ҚХТ, 2013 й., 18-сон, 233-модда. lex.uz/docs/2159832

¹¹³ Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 3 декабрдаги ЎРҚ-586-сонли Қонуни тахририда — Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.12.2019 й., 03/19/586/4106-сон. lex.uz/docs/4625125



- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni tuzish.
- xo'jalik yurituvchi sub'ekt taftish komissiyasining (taftishchisining) vazifalarini amalga oshirish.

Auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatining milliy standartlarida nazarda tutilgan boshqa professional xizmatlarni ham ko'rsatishlari mumkin.¹¹⁴

Bizga ma'lumki, O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-martdagi 218-son qarori bilan tasdiqlangan "Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi Nizom¹¹⁵ning 2-bandiga muvofiq auditorlik faoliyati faqat auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi, "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasida nazarda tutilgan professional xizmatlar ko'rsatish bundan mustasno. Ya'ni bundan shuni tushunish mumkinki, bu yerda faqat auditorlik tekshiruvlarni o'tkazish uchun litsenziya talab qilinmoqda. Qonunning 17-moddasida nazarda tutilgan professional xizmatlar uchun litsenziya talab qilinayotgani yo'q. Lekin, auditorlik faoliyati bilan faqatgina auditorlik tashkilotlari shug'ullanishi mumkin. Auditorlik tashkiloti esa auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir. Mana shu yerda qarama-qarshilik vujudga kelmoqda. Ya'ni, auditorlik xizmati sifatida ko'rsatilishi mumkin bo'lgan Qonunning 17-moddasida nazarda tutilgan *professional xizmatlarni auditorlik tashkiloti litsenziyasiz* amalga oshirishi mumkin. Ammo, *litsenziyasi bo'lmagan tashkilot auditorlik tashkiloti hisoblanmaydi*. Mana shu o'rinda uchta taklifdan birini amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchisi, Qonunning 17-moddasida nazarda tutilgan professional xizmatlarni auditorlik xizmatlaridan biri sifatida ko'rsatmaslikni.

Ikkinchisi, auditorlik tashkiloti deb faqatgina litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlarini emas, balki litsenziyasiz faoliyatini Qonunning 17-moddasida nazarda tutilgan professional xizmatlarini ko'rsatish orqali amalga oshiradigan tashkilotlarni ham auditorlik tashkilot deb ta'riflashni.

Uchinchisi, auditorlik tekshiruvi bilan birga Qonunning 17-moddasida nazarda tutilgan professional xizmatlarni ko'rsatish uchun ham litsenziya talab qilinishi lozim.

Buning uchun, "Auditorlik faolshiyati to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasi birinchi qismiga yoki mazkur qonunning 2-moddasi ikkinchi qismiga yoxud O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-martdagi 218-son qarori bilan tasdiqlangan "Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 2-bandiga o'zgartirish kiritish lozim deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining 2001 yil 14 fevraldagi 19-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Auditorlik tashkilotlarining kasbga doir xizmatlari"¹¹⁶ O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyati milliy standartiga asosan, shartnomani bajarayotganda auditor, xo'jalik yurituvchi sub'ekt (buyurtmachi) va zarurat bo'lganda istalgan uchinchi tomonlar bilan kelishilgan taomillarni bajaradi va ko'rsatilgan kasbga doir xizmatlar natijalari tug'risida asoslangan hulosalar bilan hisobot takdim etadi.

Auditor ko'rsatilgan kasbga doir xizmatlar natijalari uchun qonun xujjatlariga muvofik javobgar bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt (buyurtmachi) ko'rsatilgan kasbga doir xizmatlar natijalari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari bo'yicha o'z xulosalarini chiqarishga haqlidir. Hisobot kasbga doir xizmatlar buyurtmachisiga kasbga doir xizmatlar ko'rsatish shartnomasining shartlariga muvofiq xajm va muddatlarda taqdim etiladi.

Auditorlik tashkiloti kasbga doir quyidagi xizmatlarni ko'rsatishi mumkin:

- a) *buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, tiklash va yuritish*;
boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish;

¹¹⁴ Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 30 апрелдаги ЎРҚ-352-сонли Қонунига асосан саккизинчи хатбоши билан тўлдирилган — ЎР ҚХТ, 2013 й., 18-сон, 233-модда. lex.uz/docs/2159832

¹¹⁵ lex.uz/docs/4238916

¹¹⁶ nrm.uz/contentf...



moliyaviy hisobni tashkil etish, tiklash va yuritish;
buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish (kompyuterlashtirish);
buxgalteriya hisobini yo'lga ko'yish, tiklash va yuritish bilan bog'lik boshqa xizmatlar;
b) moliyaviy hisobot tuzish;

v) milliy moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobi xalkaro andozalariga o'tkazish;

g) xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy - xo'jalik faoliyatining taxlili:

moliyaviy holat tahlili;

likvidlilik tahlili;

to'lovga qobillik tahlili;

moliyaviy-xo'jalik faoliyatining tahlili bilan bog'lik boshqa xizmatlar;

d) buxgalteriya hisobi, soliq solish, rejalashtirish, menejment va moliyaviy-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari bo'yicha konsalting:

texnik-iqtisodiy asoslanmalar (TIA) tayyorlash, investitsiya loyihalari va biznes-rejalarni ishlab chiqish va baholash;

buxgalteriya hisobi va soliq solish masalalari bo'yicha maslaxatlar;

moliyaviy menejment bo'yicha maslaxatlar:

marketing tadqiqotlarini o'tkazish;

unumdorlik va samaradorlikni baxolash maksadida xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyat yuritishining taomillari va usullari tahlili;

moliyaviy-xo'jalik faoliyati sohasida boshqa konsalting xizmatlari;

ye) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar va deklaratsiyalar tuzish:

soliq hisobini tashkil etish va yuritish;

soliq organlarining tekshiruv dalolatnomalari bo'yicha e'tirozlar tayyorlash;

soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar va deklaratsiyalar tuzish;

soliq hisobi va soliq solish bilan bog'lik boshqa xizmatlar;

g) boshqa xizmatlar:

auditorlik faoliyati bilan bog'liq sohada tadqiqotlar, seminarlar, anjumanlar, ishlanmalar o'tkazish va ularning natijalarini, shu jumladan bosma ko'rinishda, tarkatish;

buxgalteriya hisobi, audit, moliyaviy-xo'jalik faoliyati tahlili va soliq solish bo'yicha belgilangan tartibda o'kuv ko'llanmalari, o'kuv-uslubiy materiallar tayyorlash.

Kasbga doir xizmatlar ko'rsatishda auditor amaldagi qonun xujjatlarining talablariga qat'iy amal qilishi kerak.

Umuman hozirgi kunda auditning ichki va tashqi audit, majburiy va ixtiyoriy audit tushunchalari keng tarkalgan. Shuni qayd etish lozimki, odatda mutaxassislarimiz xo'jalik yurituvchi sub'ektlardagi xo'jalik operatsiyalarining xilma xilligiga tayanib, audit ob'ektlari ro'yxatini audit turlari deb, hisoblamoqdalar. Natijada, "kassa auditi", "moddiy zaxiralar auditi", "Asosiy vositalar auditi" kabi iboralar paydo bo'lmokda.

Bunday yondashuvda auditorlar nomlari va turlari soni balansdagi moddalar, balans ilovalarida ko'rsatkichlar soni bilan tenglashib qoldi. Bu butunlay notug'ridir, chunki audit turlari va ob'ektlari bilan auditorlik faoliyati turlarini aralashtirib yubormaslik kerak. Vujudga kelgan tajribaga tayanib aytish mumkinki, hozirgi vaqtda respublikamizdagi auditorlik tashkilotlari odatda xizmatning quyidagi turlarini bajaradilar¹¹⁷:

mulkchilik shakli turli shakldagi korxonalar va tashkilotlarning buxgalteriya hisobotini auditorlik tekshirish (majburiy va tashabbusdi tarzdagi audit);

qo'shimcha xizmatlar; ekspress tahlil, obzor tariqasida tekshirish. Xo'jalik moliya faoliyatini tahlil qilish, moliya, solik, bank masalalari va boshqa xo'jalik qonunlariga doir, tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha maslaxatlar berish, mijoz bilan kelishilgan tadbirlar bo'yicha, buxgalteriya hisobining yo'lga qo'yilishi, yuritilishi va qayta tiklanishini tekshirish, buxgalteriya hisoboti tuzishni,

¹¹⁷ Маматов.З.Т Аудитни ривожланлириш муаммолари ва истикболлари -Тошкент Молия институт, 2004 -Б 40
<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>



emissiya prospektlarini tekshirish va boshqalar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, buxgalteriya hisobi va tahliliy ishlarni avtomatlashtirish; xususiylashtirishda yordam berish; soliqni rejalashtirish va soliqqa tortishni maqbullashtirish; biznes rejalar tuzish va uni texnik iqtisodiy asoslab berish; chet el adabiyotlarini tarjima qilish, amaldagi iqtisodiy qonunlarning nusxasini kupaytirish, audit hisob va tahlilga oid o'z o'quv qo'llanmalarini nashr etish; (auditolik faoliyati yunalishi bo'yicha boshqa xizmatlar ko'rsatish, muharrirlik-nashriyot ishlari, me'yoriy, spravochnik va uslubiyat adabiyotlarni tarqatish va boshqalar); iqtisodiy sub'ekt aktivlari va passivlarini baholash investitsiya loyihalarini baholash va ularning texnik iqtisodiy asoslanganligini baholashdan iborat.

Daromadlar tug'risida deklaratsiyalar tuzish; bozorning marketing tadqiqotlari; yuridik xizmatlar: ta'sis xujjatlarini ishlab chiqish va ularni ro'yxatdan o'tkazish, korxonalarini tugatish; o'quv-maslahat xizmatlari, kadrlar tayyorlash va boshqalar ham shular jumlasiga kiradi.

O'zbekistondagi auditorlik tashkilotlarining ko'plari 1996 yilga qadar o'z xodimlarning imkoniyatlariga va tashkilot faoliyatini saqlab qolish ehtiyojlarini ko'zlab, mijozlarga o'z yo'nalishi bilan bevosita bog'lik bo'lmagan sohalarida ham xizmat ko'rsatdi. Z.Mamatov, B. Muydinov fikriga ko'ra auditni quyidagi turga ajratib ko'rib chikish maqsadga muvofikdir¹¹⁸:

1. Operatsion audit. Bu ishlab chiqarish samaradorligini baholash maqsadida, xo'jalik tizimi faoliyatiga doir tadbirlar va usullarining har qanday qismini tekshiruvchi murakkab jarayon bo'lib, uni tasnif etish ancha mushkuldir.

Operatsion audit - iqtisodiy samaradorlik va uning mezonini bo'lgan to'la mehnat unumdorligiga baxo berish maqsadida xo'jalik tizimi bo'g'inlari faoliyatini tekshirishni o'z ichiga oladi. Audit tugatilgandan so'ng boshqaruvchiga aksariyat hollarda xo'jalik muomalalarini takomillashtirish borasida yo'l-yo'rik ko'rsatiladi¹¹⁹.

2. Mutanosiblik (moslik) audit. Uning maqsadi xo'jalik tizimida ma'muriyat tomonidan xodimlar uchun belgilangan mahsus tadbirlar va qoidalarga amal qilayotgani yoki amal qilmayotganligi xaqida. shuningdek amaldagi me'yoriy hujjatlarda (soliqqa tortish to'g'risidagi) amal qilinayotgani xaqida guvohlik berishdir.

3. Buxgalteriya hisobi (moliyaviy hisobot) audit. Bu mamlakatimiz uchun auditning yangi turidir, chunki ilgari bunday tekshirish idora mutaxassislari (ichki auditorlar) tomonidan bajarilar edi. Buxgalteriya hisobi auditini tekshiriladigan iqtisodiy sub'ektdan mustaqil ravishda, tashqi auditorlar tomonidan o'tkaziladi. Auditor mustakilligi deganda, uning fikriga xech kim ta'sir o'tkaza olmasligi tushuniladi. Buxgalteriya hisoboti ma'lum mezonlarga mos kelishini aniklashga yordam beradi.¹²⁰

"The Worldbook" ensiklopediyasida auditni quyidagi turlari kursatib o'tilgan:

1. Moliyaviy audit. Bunda korxonaning moliyaviy axboroti tekshiriladi xamda uning kanchalik darajada umum kabul kilingan buxgalteriya prinsiplariga (GAAP) mosligi aniqlanadi.

2. Mutanosiblik audit. Korxonaning davlatda mavjud ichki siyosat, qonunlar, yo'riqnomalar va shartnomalarga mutanosibligini tekshiradi.

3. Operatsion audit. Ushbu audit esa korxonani umumiy tekshirib uning kamchiliklarini yechimi bilan shug'ullanadi va tavsiyalar beradi¹²¹.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Auditorlik faoliyati xaq evaziga xizmat kursatishning bir turi bo'lib, auditorlik tekshiruvi va

¹¹⁸ Маматов З. Ўзбекистонда аудитни ташкил қилишнинг ўзига хос хусусиятлари// Бозор, пул, кредит -Тошкент, 2005,-№2 -Б 33-36.,

¹¹⁹ Муйдинов Б.Н. Акционерлик жамиятларида банк кредитлари бўйича операциялар ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш Тошкент: 2002 -Б 90

¹²⁰ Х.Х.Сайдиалиева. Аудиторлик фаолиятинини шартномавий ҳуқуқий тартибга солиш. – Тошкент, "YANGI NASHR", 2012. – 49-6.

¹²¹ Worldbook. Inc 525, W Monroe Chicago 1994. P 884



auditorlik professional xizmatlarini qamrab oluvchi tadbirkorlik faoliyatidir. Auditorlik faoliyati tadbirkorlik faoliyati sifatida o'ziga xos belgi va hususiyatlarga egadir. Auditorlik faoliyatiga oid qonunchilik ham o'ziga xos hususiyatga ega bo'lgan tizimni tashkil etadi. Auditorlik faoliyatini amalga oshirish ichki va tashki turlarga. shuningdek majburiy va tashabbus ko'rinishidagi turlariga ajratiladi. Ularning har biri uziga xos xususiyat va tartibiga ega.

Ichki audit xizmatining tashkil etilishi va ularning faoliyatini o'rganish natijasida, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini boshqarishda ichki audit vazifalarini amalga oshirishda ayrim kamchilik va nuqsonlar yuzaga kelayotganligi aniqlandi. Ushbu kamchiliklarni barataraf etish hamda mamlakatimiz ichki auditorlik faoliyati amaliyotida ularning takrorlanmasligi uchun fikrimizcha, "Ichki audit xizmati ishidan foydalanish" nomli xalqaro standartni amaliyotga joriy etish, ichki auditni faoliyat shakli sifatida qonunda mustahkamlab qo'yish maqsadga muvofiq.

Ekologik audit atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalari va standartlariga rioya qilishni ta'minlashning muhim vositasidir. Zamonaviy sharoitda uning roli qat'iy ekologik talablar va jamoatchilik nazoratining kuchayishi tufayli yanada sezilarli bo'ladi. Ekologik audit samaradorligini oshirish uchun huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va tavsiyalarga rioya qilmaganlik uchun javobgarlikni oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Экологик аудит тўғрисидаги ЎРҚ-678-сон қонуни. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. <https://lex.uz/docs/5331133>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 13 декабрдаги ПФ-5894-сонли Фармони таҳририда. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 14.12.2019 й., 06/19/5894/4161-сон.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 30 апрелдаги ЎРҚ-352-сонли Қонунига асосан саккизинчи хатбоши билан тўлдирилган. ЎР ҚХТ, 2013 й., 18-сон, 233-модда.
4. Ўзбекистоннинг янги қонунлари. №23 -Тошкент: Адолат. 2001 -Б 84.
5. Кочинев Ю.Ю Аудит: теория и практика -СПб: Питер, 2009 -С 16.
6. Муйдинов Б.Н. Акционерлик жамиятларида банк кредитлари бўйича операциялар ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш. Тошкент: 2002 -Б 90.
7. Worldbook. Inc 525, W Monroe Chicago 1994. P 884.
8. Х.Х.Сайдивалиева. Аудиторлик фаолиятини шартномавий ҳуқуқий тартибга солиш. - Тошкент, "YANGI NASHR", 2012. - 49-б.
9. Маматов З. Ўзбекистонда аудитни ташкил қилишнинг ўзига хос хусусиятлари. // Бозор, пул, кредит -Тошкент, 2005, №2 -Б 33-36.
10. Баханькова Е.Р. Аудит. -М: РИОР, 2009 -С 12.
11. Тулаходжаева М.М., Илхомов И.И., Ахмаджонов К.Б. Аудит. -Ташкент: NORMA, 2008 -Б 25.
12. Йулчиев А. Экологик аудит: тажриба ва муаммолар. // Ҳуқуқ ва бурч, - Тошкент, 2006, №3 -Б 4.
13. Тураббаев Б. Ички аудит хизмати самарали тизим. // Г. Хабар, 2007, 9 феврал -Б 5.